

**DAVLAT YER KADASTRI AXBOROT TIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA  
KREATIV YONDASHUVLARNI ILMIY-USLUBIY YECHIMLARI**

**Sattorov Shahzod Yarashovich**

*TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti*

*Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari kafedrasi dotsent v.b.*

*E-mail: [shsattorov1993@mail.ru](mailto:shsattorov1993@mail.ru)*

**Ochilov Askar Boymurodovich**

*Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari kafedrasi tadqiqotchisi*

**Jo'raqulov Fazliddin Faxriddinovich**

*Geodeziya va geoinformatika ta'lif yo'nalishi talabasi.*

**Teshayev Hasan Murtazoyevich**

*Geodeziya va geoinformatika ta'lif yo'nalishi talabasi.*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda Respublikamizda yer munosabatlarini bozor sharoitiga moslash, yer mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va modernizatsiyalash bo'yicha ma'lum tadbirlarni amalga oshirib kelinmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy o'zgartirishlari, o'z navbatida yer islohotlari o'tkazishni zaruriyatga aylantirmoqda.

**Kalit so'zlar:** Yer uchastkasi, ko'chmas mulk, bino inshoot, raqamlashtirish, integratsion tizimlar, yer munosabatlari, Ko'chmas mulk ma'lumotlar bazasi, elektron dastur.

Olib borilgan monografik tadqiqotlar obyekti sifatda Toshkent viloyati Toshkent tumani massiv (hudud)larida jami 16471 hektar yer maydonini qamrab olgan. Shundan: 5436,5 hektari sug'oriladigan yer maydoni, 9,7 hektari shartli sug'oriladigan (xolati yomon) yer maydoni, 13,8 hektar lalmi yer maydoni, 1147,3 hektari bog'zorlar shu jumladan, 0,20 hektari shartli sug'oriladigan bog'zorlar yer maydonlari, 649,9 hektari tokzorlar, 270,4 hektari issiqxona yer maydonlari, 23,2 hektari mevali ko'chatzor yer maydoni, 1,4 hektari tutzorlar, 19,3 hektari terakzorlar, 91,2 hektari yaylov yer maydonlari, 4321,7 hektari tomorqa yer maydonlari, 131,3 hektari dala hovlilar (bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari) yer maydoni, 31,6 hektari o'rmonzorlar shu jumladan, 25,8 hektari ixota daraxtzorlar yer maydoni, 975,6 hektar suv osti yerlari shundan, 0,20 hektari daryo va soyliklar, 6,0 hektari ko'llar, 22,8 hektari suv omborlari va suv havzalari, 946,6 hektari kanallar, kollektorlar va zovurlar yer maydonlari, 362,5 hektari yo'l osti yerlari (avtomobil, dala, temir yo'llar), 1455,0 hektari qurilish osti (qurilishlar ko'chalar, saroy va maydonlar) yerlari, 733,0 hektari qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yer maydonlaridan iborat ekanligi

aniqlangan.

“O‘zdavyerloyiha” ilmiy loyiha instituti tomonidan o‘tkazilgan xatlov natijasida Toshkent tumani massiv (hudud)laridagi o‘zga yerdan foydalanuvchilar jami maydon 1977,3 hektarni tashkil etishi aniqlangan, shundan: 167,6 hektar sug‘oriladigan yer maydoni, 21,0 hektar bog‘zorlar, 0,40 hektar tokzorlar, 21,9 hektari issiqxona yer maydoni, 0,10 hektar tutzorlar, 1,4 hektari terakzor yer maydoni, 45,3 hektar yaylov yer maydonlar, 160,2 hektar tomorqa yer maydonlari shu jumladan: 131,3 hektar dala hovli yer maydoni, 4,9 hektari o‘rmonzorlar shu jumladan: 1,0 hektari ixota daraxtzorlar, 188,2 hektari suv osti yerlar, shu jumladan: 3,1 hektari ko‘llar, 0,70 hektari suv omborlari va suv havzalari, 184,4 hektari kanallar, kollektorlar va zovurlar yer maydonlari, 133,1 hektari yo‘l osti yerlar (avtomobil, dala, temir yo‘llar), 748,9 hektari qurilish osti yerlar (qurilishlar ko‘chalar, saroy va maydonlar), 484,3 hektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yer maydonlaridan iborat ekanligi aniqlangan.

Massiv hududida jami 1599,0 hektar shundan: 861,7 shu jumladan: (4,7 shartli sug‘oriladigan yer maydoni), 49,4 hektar bog‘zorlar shu jumladan: 0,20 shartli sug‘oriladigan bog‘zorlar yer maydoni, 14,8 hektar tokzorlar, 7,7 hektar issiqxona yer maydoni, 5,3 terakzorlar yer maydoni. 356,9 hektar tomorqa yer maydonlari (shu jumladan: 0,8 hektari dala hovlilar yer maydonlari), 1,8 hektari ixota daraxtzorlar, 116,8 hektari suv osti yerlar shu jumladan: (1,4 hektari ko‘llar, 9,4 hektari suv omborlari va suv havzalari 106,0 hektari kollektorlar va zovurlar yer maydonlari), 30,0 hektari yo‘l osti yerlar (avtomobil, dala, temir yo‘llar), 91,2 hektari qurilish osti yerlar (qurilishlar ko‘chalar, saroy va maydonlar), 63,5 hektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yer maydonlaridan iborat ekanligi xatlov natijasida aniqlangan.

Massiv hududida o‘zga yerdan foydalanuvchilar jami: 128,6 hektar yer maydoni shundan: 2,1 hektar sug‘oriladigan yer maydoni, 1,9 hektari bog‘zorlar, 1,0 hektar issiqxona yer maydoni, 0,30 hektari terakzorlar, 0,8 hektari dala hovlilar (BUSH) yer maydonlari, 18,9 hektari suv osti yerlar (1,4 hektari ko‘llar, 17,5 hektari kollektorlar va zovurlar yer maydonlari), 5,5 hektari yo‘l osti yerlar (avtomobil, dala, temir yo‘llar), 52,9 hektari qurilish osti yerlar (qurilishlar ko‘chalar, saroy va maydonlar), 45,3 hektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yer maydonlaridan iborat ekanligi hatlov natijasida aniqlangan. Massiv (hudud)dagi barcha yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va maydonlarini xatlovdan o‘tkazish natijasida 48 ta fermer xo‘jaliklari va 15 ta boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari jami 63 ta yerdan foydalanuvchilar mavjudligi aniqlangan.

Fermer xo‘jaligining yer maydonida tadqiqot ishlarimizni olib bordik. Uning umumiyligi maydoni 43,71 hektarni tashkil etadi shundan 2,08 ga haydalma yer, 37,01 ga bog‘lar va boshqalar kiradi. Quyidagi rasmda fermer xo‘jaligi uchun (1-uchastka) amaldagi yer konturlari maydonlar qaydnomasi asosida tuzilgan xarita tasvirlangan (1-

rasm).



**1-rasm. Fermer xo'jaligi yer konturlarini amaldagi joylashuv xaritasi.**

Ushbu rasmda mualliflar tavsiyasiga ko'ra yangi shakldagi maydonlar qaydnomasining tarxi aks ettirilgan. Fikrimizcha,mazkur fermer xo'jaligi yer uchastkasi uchun ishlab chiqilgan maydonlar qaydnomasi talab darajasida bajarilmagan.

Ushbu uslubni respublikada faoliyat yuritayotgan barcha fermer xo'jaliklarida tadbiq etish yer axborotini haqqoniyligini va shaffofligini ta'minlaydi hamda inson omili ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi. Bunda fermer xo'jaligi yer uchastkasi darajasida yer balasini yuritish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Respublikamiz yer fondidan oqilona foydalanishda qishloq xo'jalik ekin yerlarini tabiiy hosildorligini ilmiy asoslangan holda aniqlash ularni sifat jihatidan baholash zaruriyatini tug'diradi. Tuproq unumdarligini aniqlovchi xususiyatlarga qarab yer baholash usullaridan biri-uning bonitrovka qilish, ya'ni solishtirma bahosini belgilashdir. Bu esa davlat yer kadastrini yuritishga oid tadbirlarni metodologik asoslashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, yer kadastro xujjatlari tarkibida qishloq xo'jalik yerlarini sifat jihatdan baholash ko'rsatkichlari qayd qilib beriladi. Yerlarni sifat bahosi ikki turdan iborat bo'lib, birinchisi tuproq qatlamini unumdar qismini quvvatini aks ettiruvchi bonitet bali, ikkinchisi qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymatini baholashdan iborat. Birinchi turdag'i baholash ishlari "Tuproqshunoslik va agrokimyo" ilmiy tadqiqot instituti, ikkinchi turdag'i ya'ni normativ baholash ishlari "O'zdavyerloyiha" ilmiy loyihalash instituti mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi. Yer kadastro hujjatlarida asosan har ikki turdag'i baholash ishlarini natijaviy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Demak, yer kadastro axborotlarini shakllantirishda qishloq xo'jaligi yerlarini tabiiy unumdarlik ko'rsatkichlari (bonitet ballari) ni aniqlash natijalaridan foydalanish

zarurligini qayd etamiz.

Sug‘oriladigan maydondagi muayyan tuproq turi bo‘yicha bonitet balini hisoblash uning asosiy hususiyati bo‘yicha tuproq turiga berilgan balga mos tuzatuvchi koeffitsentlarga ko‘paytirish uslubi orqali aniqlanadi.

### **Adabiyotlar ro’yxati.**

- [1] Global Iqlim O’zgarishi O’zbekistonning Barqaror Rivojlanishiga Salbiy Ta’siri. SS Yarashovich, AJ Sayitkulovich, AI Hasan o’g’li... - O’zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ..., 2023
- [2] Sattorov Sh Y, Ahmadov S O, Akhtamov S A 2021 Mechanisms of rice growing and rice development in Uzbekistan *online-conferences* 5 183
- [3] Sattorov S Y 2020 Use of aerocosmic methods and gis programs in construction of space data models of pastural land *Current scientific research in the modern world*
- [4] Abduloev A M 2020 The use of advanced technologies in geodetic and geoinformatics *Journal agro processing*
- [5] Sattorov S. Y., Muhammadov Q., Bobojonov S. QURILISH JARAYONIDA ELEKTRON TAXEOMETRLARLARNI O ‘RNI //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.
- [6] Сатторов Ш.Я, Мухаммадов Қ., Бобожонов С. ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИДА ЭЛЕКТРОН ТАХЕОМЕТРЛАРЛARNI O ЪRNI //Эуро-Асия Конференсес. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.
- [7] Сатторов Ш. Я. и др. USE OF AEROCOSMIC METHODS AND GIS PROGRAMS IN CONSTRUCTION OF SPACE DATA MODELS OF PASTURAL LAND //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 5-4. – С. 16-22.
- [8] Сатторов Ш. Я. ЯЙЛОВ ЕРЛАРИНИНГ ДЕГРАДАЦИЯ ОМИЛЛАРИ //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. – 2020. – №. SPECIAL ISSUE.
- [9] Абдуллоев, А. М. (2020). ГЕОДЕЗИК ВА ГЕОИНФОРМАТИК ИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ИЛГОР ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (SPECIAL ISSUE).
- [10] Muzaffarovich, Abdulloyev Ashraf. "USE OF ADVANCED TECHNOLOGIES IN GEODESIC AND GEOFORMATIC WORK." *Агропроцессинг* SPECIAL (2020).
- [11] Ашраф, Мудасир, Ясс Худхейр Салал и С.М. Абдуллаев. «Интеллектуальный анализ образовательных данных с использованием базового (индивидуального) и ансамблевого подходов к обучению для прогнозирования успеваемости учащихся». *Наука о данных*. Спрингер, Сингапур, 2021. 15–24.

- [12] [Geoportal visualization of state cadastre objects:\(a case study from Uzbekistan\)](#) A Inamov, S Sattorov, A Dadabayev, A Narziyev - IOP Conference Series: Earth and Environmental , 2022
- [13] [Conventional and current approaches of urban mapping and geodetic base formulation for establishing demographic processes database: Tashkent, Uzbekistan](#) S Abdurakhmonov, M Khamidova, Y Romanyuk - E3S Web of Conferences, 2024
- [14] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. KARTAGA OLISHDA ZAMONAVIY METOD VA TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 105-109.
- [15] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. GEOMA'LUMOTLAR BAZASIDAGI MAVZULI QATLAMLARNING ATRIBUTIV JADVALLARINI ALGORITMGA BOG 'LASH //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 99-104.
- [16] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. AEROKOSMIK METOD YORDAMIDA MELIORATIV MONITORING QILISH VA KARTASINI ISHLAB CHIQISH //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 110-115.
- [17] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. DALA TADQIQOT NATIJALARINI GEOMA'LUMOTLAR BAZASIGA INTEGRATSIYALASH //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 93-98.
- [18] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. KOSMOSURATLARDAN FOYDALANIB ELEKTRON RAQAMLI KARTALARNI YANGILASH //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 54. – №. 4. – С. 14-18.